

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA INTELLEKTUAL MULKNING AHAMIYATI

Nasirillayeva Nadida Otabek qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida intellektual mulkning tutgan o'rni va strategik ahamiyati ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Intellektual mulk obyektlarining innovatsion jarayonlardagi roli, ularni huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, O'zbekiston sharoitida intellektual mulk tizimini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, intellektual mulk innovatsion iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy institutsional omillardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, intellektual mulk, texnologik rivojlanish, intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi, tijoratlashtirish.

Kirish

Innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash, uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishini va raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzini yanada oshirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda har bir davlat o'z iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda innovatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanishga katta e'tibor qaratmoqda. Innovatsiyaning negizini esa intellektual mulk tashkil etadi. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda intellektual mulkning ahamiyati beqiyos, o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan davrda davlatlar o'z taraqqiyot yo'lini intellektual mulk sohasini rivojlantirish orqali belgilamoqda. Ilm-fanning cheksiz yutuqlari jamiyatning barcha tarmoqlariga tadbiq etilishi esa mamlakatimizda intellektual mulk sohasini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Innovatsion iqtisodiyotning nazariy mohiyati

Innovatsiya atamasi lotincha-"innovato"so'zidan olingan bo'lib, yangilash va yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Umumiy mazmunda mazkur atama odamlar tomonidan, asosan, ayni paytda va muayyan vaqtda yangi deb qabul qilingan madaniyatning moddiy yoki nomoddiy qadr-qiymati sifatida tushunilgan. Innovatsiya atamasining texnik-texnologik yangiliklarni joriy etish sohasida qo'llanilishida keyinchalik kirib kelishi kuzatilgan.

Rus iqtisodchi-olimi I.T.Balabanov fikriga ko'ra: innovatsiya– nazorat, hisob, rejalashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish,

boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o'zida namoyon etadi¹.

Shuningdek, A.B.Borisov innovatsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: "Innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasini anglatadi"².

V.G. Medinskiy olib borgan izlanishlari asosida quyidagi xulosaga kelgan: "Innovatsiya sifatida olib borilgan ilmiy-tadqiqot yoki avvalgiga o'xshash turidan sifat jihatdan farq qiluvchi yangisining yaratilishi natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt tushuniladi"³.

Rus olimlaridan V.V. Glushchenko, I.I. Glushchenkoning mazkur atamaga bergan ta'riflari quyidagichadir: "Innovatsiya – tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning firma darajasidagi tashkiliy shakllarning yangi turlarini ishlab chiqish, tayyorlash va tarqatishga yo'naltirilgan ijodiy va investitsion faoliyat natijasi"⁴.

R.A. Fatxutdinov esa innovatsiya – obyektning boshqarishni o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa turdagi samarani olish maqsadida yangilikni joriy etishning yakuniy natijasi, deb baholaydi⁵.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham innovatsiya atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo'yicha katta izlanishlar olib borishgan va o'zlarining zamonaviy talqindagi ta'riflarini ishlab chiqqanlar. Shular jumlasida iqtisodchi-olimlar R.I. Gimush, F.M. Matmurodovlar tomonidan innovatsiya deganda –yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim, deya ta'rif berilgan⁶.

B.E.Toshmurodova, N.Jiyanovalar fikriga ko'ra: innovatsiya tushunchasi o'z ichiga faqat texnik izlanishlarni olmasdan, balki korxona ishi usulidagi barcha yaxshi o'zgarishlarni (yangi xizmatlar, pastroq narxlar belgilash va boshqa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish) oladi⁷.

Amaliy muammolar va rivojlanish istiqbollari

¹ Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2017. – С. 41.

² Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2018. – С. 185.

³ Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2016. – С. 28.

⁴ Глушенко В.В., Глушенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые, экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПЦ «Крылья», 2016. С.30

⁵ Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2019. – С. 19.

⁶ Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – B. 10

⁷ Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – B. 11

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Agar intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmasak, O'zbekiston 10 yildan keyin ham raqobatdosh bo'lmaydi"⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 12 oktabrda intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish masalasida o'tkazilgan yig'ilishda soha kompleks tahlil qilindi. Tizimdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish borasidagi asosiy vazifalar belgilandi. Xususan, har bir davlat idorasiga sohani rivojlantirishga qaratilgan uch yillik dastur ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Shuningdek, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish yuzasidan har bir idora va tarmoqqa ilmiy yutuqlarni olib kirish masalalari ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda intellektual mulk sohasini yangi bosqichga olib chiqish uchun ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahalliy brendlarni ommalashtirish, o'ziga xos innovatorlik maktabini yaratishda xalqaro amaliyot muhim o'rin tutadi.

O'tkazilgan tahlillar intellektual faoliyatni rivojlantirish, ilg'or intellektual faoliyat natijalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo'nalishdagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, intellektual mulk obyektlari qo'llangan mahsulotlar hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda o'z nomiga (brendiga) ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatdi. Xususan:

- intellektual mulk obyektlarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish ko'rsatkichlari juda past;

- aholi va tadbirkorlik subyektlari intellektual mulk sohasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatiga intellektual faoliyat natijalarini joriy qilishdan manfaatdor emas;

- ixtirochilar va novatorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmagan;

- intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasini ta'minlash uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik lozim darajada yo'lga qo'yilmagan, ilmiy-tadqiqot muassasalari va laboratoriyalarining intellektual mulk sohasi bilan bog'liq faoliyati yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan;

- ilmiy ishlanmalarni fuqarolik muomalasiga kiritish ko'rsatkichlari past;

⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 12-oktabrdagi "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" yig'ilishidagi nutqi. - <https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/12/intellectual-property/>

-“IP Management” (intellektual mulkni boshqarish) sohasida intellektual mulk obyektlarini rivojlantirish va ularning transferi bilan faol shug‘ullanuvchi yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi;

-intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada emas, ushbu sohada, ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlarida malakali mutaxassislar yetishmaydi;

-ta’lim tashkilotlarida insonlarning intellektual faoliyat natijalariga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan amaliy tadbirlar o‘tkazilmaydi;

-ta’lim jarayonlarida o‘zgalarning intellektual mulk obyektlaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, ko‘chirmachilikning (plagiat) oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarlicha amalga oshirilmagan;

-kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi kurashish bilan bog‘liq ishlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqiladigan va uning hududiga olib kiriladigan tovarlar bo‘yicha intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada tashkil qilinmagan.

Qayd etilgan kamchiliklar mamlakatimizda intellektual mulk sohasining jadal rivojlanishiga, jahon bozorlarida O‘zbekiston nomini ifoda qiluvchi mahsulotlar eksporti hajmining ortishiga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, iqtisodiyotning o‘sishiga hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi hamda amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, intellektual mulk innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda asosiy strategik institut sifatida namoyon bo‘ladi. Uning samarali huquqiy muhofazasi va iqtisodiy aylanishga jalb etilishi innovatsion faollikni oshiradi, texnologik taraqqiyotni jadallashtiradi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida intellektual mulk tizimini yanada takomillashtirish innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 12-oktabrdagi "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" yig‘ilishidagi nutqi.
3. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – Спб.: Питер, 2017. – С. 41.
4. Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2016. – С. 28.
5. Глущенко В.В., Глущенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые,

- экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПЦ «Крылья», 2016. С.30
6. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – Спб.: Питер, 2019. – С. 19.
 7. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2018. – С. 185.
 8. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – B. 10
 9. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2016. – B. 11